



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QISH SAVODXONLIGI FANI ASOSIDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Quronboyeva Sevara Dilshodovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida integratsiyalashgan ta'lim shaklini qo'llash samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaning ta'lim sifatini oshirishdagi roli, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, pedagoglarning integratsiyalashgan darslarni rejalashtirish va amalga oshirishdagi yondashuvlari va metodologiyasi haqida fikrlar taqdim etiladi. Maqola zamonaviy ta'lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadqiq qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash

Boshlang'ich ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishi, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jamiyatda ta'lim oluvchi shaxsining yuksak bilimga ega, har tomonlama teran fikrlovchi komil inson sifatida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun boshlang'ich ta'limda O'qish savodxonligi fanining ahamiyati muhim sanaladi.

Maktabning dastlabki bosqichlarida ta'lim oluvchilar savodini chiqarishda, to'g'ri yozish va to'g'ri o'qish malakasini shakllantirishda ushbu fan ta'lim oluvchilarning ta'limiy texnikasini oshirishga xizmat qilsa, undagi materiallar mazmuni ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini kuchaytirib, kreativ g'oyalarni amalga oshirishga tarbiyaviy xizmat qiladi.

Bu o'rinda ta'lim beruvchi pedagoglar o'qish savodxonligi fanini to'g'ri tashkil qilishi, samaradorlikka erishish yo'lida zarur pedagogik texnologiyalar, metod va vositalarni tanlay olishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, ya'ni integratsiyalash ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida mustahkam bilim shakllanishiga imkon yaratadi.

Integratsiya tushunchasi bugungi kunda ko'p tarmoqli atama bo'lib, ushbu integratsiyalashgan tizim iqtisodiy-siyosiy, texnikaviy sohalarni qamrab olish bilan birgalikda ta'lim tizimida ham qo'llanilishi bilan juda keng maydonni egallashini tarixiy ma'lumotlar, yetuk pedagoglarning asarlarida keltirilgan dalil va tavsiyalar orqali ko'rishimiz mumkin.

Avvalo, integratsiya tushunchasining mohiyatini ko'rib chiqaylik. Pedagogik psixologik nuqtani nazardan qaraganda, integratsiya ijtimoiy psixologik aspekt bo'lib, biror



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

bir yangilikni ijtimoiy sohaga tezkorlik bilan tatbiq etish va ta'lim jarayonini jadallashtirish demakdir. Integratsiya lotincha integratio - tiklash, to'ldirish, integer - butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarining bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Ta'lim tizimidagi o'quv fanlariga integratsiya jarayonlarining kirib kelishida tarixiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, uzoq o'tmishga borib taqaladi. Integratsiyaning ta'linga arlashuvi klassik pedagogika bilan ifodalanib, o'quv materialini mazmunini o'rganish, tabiatni yaxlit bir butun sifatida talqin qilishni nazarda tutadi.

Integratsiya jarayoni differentsatsiya bilan mustahkam aloqaga ega bo'lib, mazkur jarayonlar o'quv fanlarining tanlanishida, tuzilishida va o'quvchilar bilimini umumlashtirishda o'z aksini topadi.

Integratsiya - differentsatsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi va bog'liqligida ko'rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog'liqlikning yuqori shaklida namoyon bo'ladi. [1]

Buyuk didakt olim Yan Amos Komenskiy bu xususida shunday yozadi: "Barcha o'zaro bog'liqliklar aynan ana shu bog'liqlikda o'rganilishi zarur". [2] Keyinchalik ko'plab olimlar mazkur fikrni umumlashtirgan holda uni yanada rivojlantirdilar.

O'qish savodxonligi fanidan berilgan she'rlarni ona tili darslarida modullashtirish mumkin. Integratsiyali darslarni tashkil qilish uchun o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarda faollikni oshirish yo'llarini, mavzuni o'tish modellarini, mashg'ulot jarayonida foydalanish lozim bo'lgan vositalarni, usullarni aniqlab oladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mavzuga oid izchil talablar qo'yilishi lozim. Buning uchun o'qituvchi darsning kengaytirilgan rejasini tuzib, shu reja asosida ish olib boradi. O'quvchilar mustaqil fikrlash orqali individual ravishda izlanadilar, natijada tafakkur qobiliyatlari rivojlanadi.

Metodist B.Ziyomuhammadov va Sh.Abdullayevalar o'quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta darsga, bitta mavzuga yoki o'quv predmetining bir qismiga, butun o'quv predmetiga tuzib chiqilishi lozimligini ta'kidlab, uning quyidagi 5 ta tamoyili borligini ko'rsatadi: muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish; darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsad va modular ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; modul ichida test savollarini tuzib chiqish; maqsadlarga yetish usullarini aniqlash; bir butunlik tamoyiliga asoslanib, dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish hisoblanadi. [3]

Hakim Nazirning "Eng yaqin do'stimiz" hikoyasidagi kitob predmetini integratsiyalaymiz.

Ona tili fani bilan integratsiyalash:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Bolalar, kitob soʻzida nechta tovush va harf bor?

Kitob soʻzi qaysi soʻroqqa javob boʻladi?

Kitob soʻzi ishtirok etgan gap tuzing.

Matematika fani bilan integratsiyalash:

Kitobim javonida

Bordir yuz sheʼriy kitob.

Onam sovgʻa qildilar

Oʻn ikki badiiy kitob.

Sakkiz kitob bergandi

Zoʻridan deb zoʻr singlim.

Barchasini qoʻshing-chi

Qanchaga yetdi ilmim?

Tabiiy fan bilan integratsiyalash:

Kitob qanday materiallardan tayyorlanadi?

Kitob tayyorlash uchun asosiy material bu qogʻoz hisoblanadi. Tarixdan qarasak, odamlar qogʻozdan foydalanishni 2-asrdan boshlashdi. Qogʻozni Xitoyliklar yaratishgan. Qogʻoz tayyorlanishni koʻp vaqt sir tutishgan. Qogʻoz daraxt yogʻochi poʻstloqlaridan tayyorlanilishi maʼlum boʻldi. [4]

Boshlangʻich taʼlimda oʻqish savodxonligi fani oʻquvchilarning taʼlimiy texnikasini rivojlantirish, toʻgʻri oʻqish va yozish malakasini shakllantirish hamda kreativ fikrlash qobiliyatini oshirishda asosiy vositadir. Taʼlim jarayonida fanlararo integratsiya bilimlarning yaxlit va tizimli oʻzlashtirilishiga, mavzular orasidagi bogʻliqlikni koʻrsatishga xizmat qiladi. Integratsiya va differentsiya jarayonlari bir-birini toʻldirib, taʼlim mazmuni va metodikasini takomillashtirishga imkon yaratadi. Shu tariqa, boshlangʻich taʼlimda mazmuniy va metodik yangilanishlar, pedagoglarning mahorati bilan birlashganda, oʻquvchilarning har tomonlama rivojlanishini taʼminlaydi. Integratsiya oʻquv jarayonida tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil bilim olish koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa zamonaviy taʼlimning asosiy maqsadlaridan biridir. Integratsiyalashgan taʼlim shakllari magistrlik tadqiqotlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratib, ilmiy izlanishlarda nazariy va amaliy jihatlarini uygʻunlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sadriddinova Zulfiyaxon. Boshlangʻich sinf oʻqish savodxonligi taʼlimini ijodiy tashkil etishning mohiyati va oʻlchovlari. Qoʻqon universiteti xabarnomasi. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1058?utm_source

2. Xurramova Madina Abdunazar qizi & Musurmonqulov Adham Abdurashid oʻgʻli. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish darslarining integratsiyasini taʼminlashda oʻqituvchi kompetentligi. Innovative Development in Educational Activities. https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1955?utm_source



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

3. Shukurullayeva Nodira. Boshlang'ich sinflarda tutuq belgisini o'rgatish darslariga innovatsion va integratsion yondashuv. Tamaddun Nuri jurnali. https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tmj/article/view/594?utm_source

4. Jumaniyazova Go'zal Baxorovna Boshlang'ich sinf o'qish darslarida "Quvnoq daqiqalarlar" yordamida integratsiyalashgan ta'lim shaklini qo'llash samarasi // Ta'lim va innovatsiyalar. — 2023. — №4. — B. 188–195.